

**O'zbekiston Respublikasi nomli davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabgorlarning erishgan natijalarini baholash mezonlari**

T/r	Ko'rsatkichlar	Qo'yiladigan ball	Izoh
1.	Ilmiy tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va b.)	30 ballgacha	Talabgor tomonidan mustaqil tanlangan asosiy 2 ta ilmiy-tadqiqot ishi inobatga olinadi va har biri 15 ballgacha baholanadi
	Qolgan ilmiy-tadqiqot ishlari	10 ballgacha	Asosiy tanlangan 2 ta ilmiy-tadqiqot ishidan boshqa barcha ishlari inobatga olinadi va jami 10 ballgacha baholanadi
2.	Erishgan yutuqlari (Davlat mukofoti, xalqaro va respublika fan olimpiadasi hamda ko'rik tanlovlar g'olibligi, patent, ixtirolar va b.)	30 ballgacha	Talabgorning tahsil olayotgan mutaxassisligiga mosligiga ustuvorlik beriladi
3.	Til bilish sertifikatini (Bakalavriat ta'lim yo'nalishi xorijiy til bo'lgan taqdirda boshqa xorijiy tilni bilish sertifikatini talab etiladi)	10 ballgacha	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son, 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son qo'shma qarori (ro'yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) ilovasi bilan tasdiqlangan milliy va xalqaro sertifikatlar inobatga olinadi. B1 darajasidan past darajalar hamda amal qilish muddati o'tgan sertifikatlar inobatga olinmaydi
4.	Reyting bahosi	20 ballgacha	Reyting bahosi ballga proporsional ravishda hisoblanadi

**Izoh.**

1. Quyidagilarga:

ilmiy ishlar, yutuqlar, natijalarning aynan talabaning muayyan ta'lim bosqichi davrida erishilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlarining izchilligiga, yakka mualliflikda hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natijalarning talabgor tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishiga mosligiga ustuvorlik beriladi.

2. Agar talabgor muqaddam davlat stipendiyasi sovrindori bo'lgan bo'lsa, sovrindor bo'lgan sanadan keyingi davrida erishgan natijalari va ilmiy-tadqiqot ishlari inobatga olinadi.